

Navoiysiz dunyo benavo

Alisher Navoiyning she'r-u g'azallarini yod olib ulg'ayganimiz rost. Uning ruboiylaridan anglashilgan haqiqatlar ma'naviy olamimizni boyitadi. Inson sifatida shakllantiradi ham...



Aslida, Navoiysiz she'riyat g'arib, dunyo benavo. Ayniqsa, o'zbek adabiyotini Navoiy ijodisiz tasavvur etishning-da o'zi mushkul. O'zbek tili taraqqiyotida buyuk mutafakkirning xizmatlari beqiyos. Bobokalonimiz qariyb olti asrdan buyon, Abdulla Oripov ta'kidlaganidek, qalami bilan nazmiy saroyini titratib kelayotir. Hazrat Navoiyning doston-u asarlarida ijtimoiy hayot, falsafiy qarashlari ro'yirost ochib berilganki, so'zining har satrida seyr mujassamlashgandek qayta va qayta "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin" ni o'qiyveramiz, o'rganishdan charchamaymiz. Vaholanki, buyuk daho asos solgan tilimiz asrlar silsilasidan o'tib, yanada sayqallanib, taraqqiy topib bormoqda. O'zbek tili bilan Navoiy nomi bir qatorda yangrashi ham shundan aslida. Erta tongdan Alisher Navoiy haykali poyiga davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, soha mutaxassislari, adabiyotshunos olimlar, shoir va yozuvchilar, talabayo'zshlarning ehtirom ko'rsatish marosimi bilan boshlandi. Tantanali tadbirda viloyat hokimi o'rinbosari Ilhom Saparov, Termiz davlat universiteti rektori Avazjon Marahimov, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari Mengnor Ollomurodov va boshqalar so'zga chiqib, Navoiy dahosini qadrlash, uning ijodini

ta'kidlandi. Navoiy g'azallaridan namunalar o'qilib, so'z mulkining sultoni haykali poyiga gulchambarlar qo'yildi. Ko'tarinki kayfiyatda boshlangan gul qo'yish marosimi Termiz shahridagi San'at saroyida badiiy kecha bilan davom etdi. Unda ijro etilgan kuy-qo'shiqlar, she'rlar

guldastasi yig'ilganlarga chinakam tuhfa bo'ldi. Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan sahna asarlari tadbirga yig'ilganlarni go'yo shoir yashab o'tgan zamonga chorlaganday bo'ldi. Navoiy haqiqatda buyuk siymo — allomalar avliyosi, shoirlar sultoni, faylasuflar

avvali! Uni ardoqlash, ijodini to'laqonli o'rganish, uning bilan faxrlanish hissi har bir yurtodoshimizning yuragida jo. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ta'kidlaganidek, Navoiy bor qudrati va yuksakligi

bilan dunyoga ko'rsatmoq uchun, avvalo, biz o'zimizni yuksak qadrlamog'imiz kerak. Demakki, Navoiy asarlari bilan dunyoni takror va takror kashf etishda

bardavomligimiz shundan.

Adolat MO'MINOVA

Safarbarlik taraddudi

Xabaringiz bor, yilda bir marotaba bahor oylarida fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish, safarbarlik chaqiruv rezervidagi xizmatga olish bo'yicha tadbirlar bo'lib o'tadi.



Shu munosabat bilan viloyat mudofaa ishlari boshqarmasida boshqarma va tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limlarida fuqarolarni muddatli va muqobil xizmatga chaqirish, safarbarlik chaqiruv rezervidagi xizmatga olish bo'yicha Rahbariyat kengashi, Qurolli kuchlarni butlash, hududiy hamda hududiy-tibbiy komissiyalar tarkibi bilan ishlar bo'yicha bir kunlik o'quv mashg'ulot o'tkazildi. Tadbirda Janubiy operativ qo'mondonligi boshlig'i polkovnik Po'latjon Sativaldiyev, viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig'i, podpolkovnik Ilhom Qambarov, Termiz harbiy prokurorining katta yordamchisi, adliya mayori G'iyosiddin Rahmonov, Termiz harbiy gospitali boshlig'i o'rinbosari, tibbiyot xizmati podpolkovnigi Sobir Haydarov, shuningdek, barcha tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limlari boshliqlari, fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish bo'yicha viloyat rahbariyat Kengashi tarkibi, harbiy-tibbiy komissiyasi tibbiyot xodimlari, butlash komissiyasi vakillari ishtirok etdi. Tadbirda so'z olgan Janubiy operativ qo'mondonligi boshlig'i

polkovnik Po'latjon Sativaldiyev mudofaa ishlari bo'limlarida yoshlarni muddatli harbiy xizmat chaqiruv mavsumini uyushqoqlik bilan o'tkazishga chaqirdi: — Harbiy xizmatga ketish tartibi haqida odamlar orasida noto'g'ri tushunchalar shakllanib qolgan. Biz mudofaa ishlari bo'limlaridagi shaffoflikni ta'minlash orqali xalqimizning ishonchini oqlashimiz kerak. Shaffoflik bo'lmagan yerda korrupsion harakatlar paydo bo'ladi. Bunday jirkanch illatlar harbiylar orasida bo'lmashligi kerak. Shu kabi xatti-harakatlar sodir etilgan taqdirda shaxsan o'zimga murojaat qilishingizni so'rayman. Muddatli harbiy va muqobil xizmatga chaqirish davrida korrupsion xatti-harakatlarning oldini olish bo'yicha okrug qo'mondoni tomonidan mas'ullarga qat'iy topshiriq berildi. Shu ham alohida qayd etish kerak, ba'zida harbiy xizmatga ketish uchun ham tanish-bilishchilik qilish lozimligi quloqqa chaliniq qoladi. Inchinun, el orasida bu singari tushunchaning shakllanib qolgan ham bejiz emas. Yaqin o'tgan yillarda xalq orasida: "Agar tanish-bilish bo'lmasa, harbiyga ketolmaysan," degan gap-so'zlar

ko'p uchrardi. Sohada olib borilgan islohotlar qisqa fursatda o'z mevasini bera boshladi. Negaki, so'nggi bir-ikki yil ichida o'z kuchi, jismoniy va aqliy salohiyati tufayli harbiy xizmatga ketayotgan yoshlar tizim ancha shaffolashganligini e'tirof etishmoqda. Axir, Vatan himoyasi uchun faqat va faqat aqlan sog'lom, jismonan barkamol, mard o'g'lonlar zarur. Shuni qalban his qilgan mudofaa ishlari boshqarma va bo'limlari xodimlari davlat va xalq manfaatlaridan kelib chiqib, halol xizmat qilishmoqda. Zero, muqaddas Vatan sarhadlarini qo'riqlaydigan yigitlar ilk qadamini korrupsiya illati bilan tashlamasliklari kerak. Muvozanat buzilgan yerda norozilik paydo bo'ladi. Jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lishligi ko'p jihatdan davlat tizimlarida shaffoflikni ta'minlashga bog'liq. Barcha tizimlar soat mexanizmidek aniq-tiniq ishlaganida, odamlarda davlat organlariga nisbatan ishonch, o'zaro xayrixohlik paydo bo'ladi. Tadbirda Janubiy-G'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlarida 2022-yil chaqiruv tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishga oid vazifalar belgilab berildi.

Xolmuhammad TOG'AYMURODOV

SHOIRLARNING SULTONI XOTIRASIGA

BAG'ISHLANDI



2018-yildan buyon qo'shni Afg'oniston yoshlari Termizdagi Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazida tahsil olmoqda. Qisqa vaqt orasida ilm dargohini 96 nafar o'g'il-qiz bitirib, mustaqil hayotga yo'llanma oldi.

Ayni paytda 145 nafar talaba yosh ta'lim olishyapti. Markaz ustozlari va talabalari tashabbusi bilan buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligi munosabati bilan "She'riyat osmonining yorqin yulduzi" mavzusida adabiy-badiiy mushoira o'tkazildi. Buyuk so'z san'atkorlari tarixning tub burilish nuqtalarida, millatni birlashtiruvchi, ruhan yuksaltiruvchi badiiy so'zga kuchli ehtiyoj tug'ilgan paytda dunyoga keladi. Tadbirda so'z olganlar Alisher Navoiy xuddi shunday davrda dunyoga kelib, Xuroson va Hirotda xalqning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash barobarida o'zining boy va serqirra ijodi bilan o'zbek adabiyoti, shu bilan bir qatorda jahon adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shganini ta'rifladilar. Navoiy lirik, epik va falsafiy asarlari bilan XV asr adabiyotida chuqur iz qoldirdi, uning shoh asarlari hayotlik davridayoq Xitoydan tortib, Kichik Osiyogacha yetib borgani va hozir ham butun dunyo xalqlari sevib o'qiyotgani ta'kidlandi. Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi

direktori Oybek Ro'ziyev, viloyat ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Nargiza Rahmatullayeva, markaz o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Sayyora To'rayeva, afg'onistonlik talaba Shkiba Saidiylarning ma'ruzasida mamlakat humkdori Husayn Boyqaro Navoiyning 1472-yilda o'z saroyining bosh vaziri etib tayinlagani va unga "amiri kabir" unvonini berganini, shoir g'azal, ruboiy, tuyuq, fard, qit'a, muxammas, musaddas, musallam kabi she'riyatning 16 ta janrida ijod qilgani, bosh vazir sifatida Xurosonda 377 ta tarixiy rabot, machit, madrasa, hammom, hovuz bunyod etgani xususida misollar keltirishdi. Tadbirda Navoiy haqida o'z fikrlarini bayon etgan talabalar olimlar hisob-kitobiga ko'ra, ruslarning iqtidorli shoiri Aleksandr Pushkin o'z asarlarida 21 197 ta betakror so'z ishlatgan, inglizlarning mashhur ijodkori Uilyam Shekspir salkam 20 mingga, Servantes mingtacha yaqin so'z ishlatgan bo'lsa, Alisher Navoiyning dunyoqarashi shu qadar keng bo'lganki, u o'zining nodir asarlarida 1 378 666 ta betakror so'z ishlatganligini aytib o'tishdi. Boisi, buyuk bobimiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo'g'ul va



boshqa tillardagi so'zlardan ham mahorat bilan foydalangan. Tadbirda afg'onistonlik yoshlar Navoiy bobomizning yozgan g'azallari va ruboiylaridan namunalar o'qishdi, Navoiyning o'z sevgilisi Guliga izhor qilgan ko'ngil mayllarini sahna ko'rinishida namoyish etdilar. Taniqli san'atkor Rahmatulla Allamurodov mushoira

qatnashchilari ishtirokida Navoiy g'azallari bilan aytiladigan dilrabo qo'shiqlar ijro etib, yig'ilganlarni mamnun etdi. Mushoiraning faol ishtirokchilariga tashkilotchilar tomonidan eng sara kitoblar sovg'a qilindi.

Usmonali NORMATOV



meningcha.
— O'rdaklarga yemi bilan birga sabzi va sholg'om qaynatib beryapmiz, — deydi Pardaxol To'raxonova. — Innovatsiya vazirligi tomonidan ajratilgan mablag' evaziga generator o'rnatildi, chiroqdan xavotir olmayapmiz. Tuxumga kirgan o'rdaklardan kuniga 2 mingga yaqin tuxum olinsin ham

degan umid ustuvor bo'lgan tashabbuslar oltinsoylik yoshlarning ko'nglida ulg'aymas ekan, elning buguni ham, ertasi ham o'zgarmaydi. Aslini olsak, oltinsoyliklarning yarqiragan peshonasiga bitgan baxt — innovatsion tuman deb tanlanishning o'ziyoq ishlash vaqti kelganini to'liq izohlay oladi, kerak bo'lsa, so'nmas motivatsiyadir. Ammo, yangilik yaratish o'rniga tuman hududiga kiraverishda o'rnatilgan stellani tashbo'ron qilgan aholi uchun hali

ketarkan. Ishiga unum-u bozoriga chaqqonlik bersin.

“QULOQ ORTIGA NON YEMAGAN”

Viloyatda ilm-fan, texnologiya, tadqiqot va tajriba-konstruktorlik sohalarini rivojlantirish maqsadida o'tgan yilda vazirlik tomonidan 12,6 milliard so'mlik 14 ta loyiha moliyalashtirildi. Bitta innovatsion, ikkita amaliy, uchta startap loyiha moliyalashtirilgan bo'lsa,

IMKONIYAT

sandiqni bezashdan nariga o'tmasligini bahona qiladigan aholini ham tushunish kerakmi?!

Oltinsoyda shijoati bo'yidan baland o'g'il-qizlar borligini zamon anglatib turibdi. Ular bilan suhbatimning asnosi orzulari ro'yobiga yetish uchun qo'lkaltalik tushov bo'layotganligini ta'kidlashadi. Ro'zg'orning bitmas g'ori hali go'dak yoshida yamlaymay yutib yuborayotgan yoshlar bilan suhbatlashib elning ertasini o'zgartiradigan yoshlarning buguni uchun imkon yo'qligidan joning hiqildog'ingda qotadi.

Albina haq. Toshkent azimda axborot texnologiyalarni o'rganish uchun 100-200 AQSH dollarini har oy bahridan o'tishadi. Va yana haqiqat borki, poytaxtda bugun sarflangan pul ertaga ikki, indin uch barobar bo'lib qaytadi. Ammo, Oltinsoydachi?! Bugun sarf etilgan mablag' qaytishiga sharoit bormi? IT kursini o'rganib, paynetchi bo'lishmaydi-ku...

“BUDILNIK” 2022-YIL JIRINGLAYDI

Yoshlarni uyg'otuvchi kuch kerak deb javrganimda uf tortib yuborgandirsiz. Boshqarmadagilar o'tni oldinroq qamchilab, joriy yilgi rejalariga “budilnik” qo'yishibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi “Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida”gi farmoniga muvofiq, “Biznes birinchi qadam” startap g'oyalari tanlovinini tashkil qilish va g'oliblarni mahalliy byudjetdan moliyalashtirish ko'zda tutilgan. Endi bu quvonchli xabarim o'z yoshlarimni qulog'iga yetib borishini tashkillashtirsa, guldai hunari turib, musofirlikda rizq terayotganlar uchun ayni muddao bo'larmidi?!

Termiz shahrida “Yoshlar texnoparki”ni tashkil etish ham 2022-yilning ahamiyatli rejalaridan. Viloyatda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida mavjud tashkiliy hamda texnologik muammolarning ilmiy yechimiga qaratilgan ilmiy-texnik mavzularni shakllantirish va loyihalarni Innovatsion rivojlanish vazirligining grant mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishini ta'minlash ham, viloyatda Ilmiy-innovatsion g'oyalar va ishlarni yarmarkasini tashkil qilish va o'tkazish ham bu yilgi reja grafikka “mixonlangan”.

Bevosita Oltinsoyga qaytsak, “OLTINSOY INNO FISHERS” MCHJ tomonidan aholi xonadonlarida intensiv usulda baliq yetishtirish tizimini joriy etish orqali tumandagi “Temir daftar” va “Ayollar daftar”ga kiritilgan oilalar ish bilan ta'minlanadi. “SURXON ZEROMAX” MCHJ tumandagi fermer xo'jaliklari uchun arzon va sifatli yem (kombikorm) ishlab chiqarishni maqsad qilgan. “XUSHNUDBEK COMBICORN INNOVATION” MCHJ tomonidan “Chorvachilik uchun kompakt ko'rinishda vitaminli o'simlik unini ishlab chiqarishni tashkil etish” loyihasi doirasida bir va ko'p yillik o'tlar va dukkakli o'simliklardan chorvachilik uchun yashil yem-hashak o'tlaridan ozuqlanishi ikki barobar yuqori bo'lgan vitamin-o'simlik uni ishlab chiqariladi.

INDALLOSI INSHALLOH!

Oltinsoyning ko'ngli oltin ahli uchun berilgan imkon butun Surxonga tatiydi. Rejalar bisyor, labbay deya biri-biriga yelkama-yelka bo'ladigan, el xizmatiga belni mahkam bog'lab kirishadigan zamon kelibdi. Barini vaqt hukmda qoldiramiz. Xulosa-yu sarhisob vaqtda uyalib qolmaslik nasib etsin!

Xurshid KARSHIYEV,
Naimullo MUHIBULLOYEV,
(surat)

Viloyat adliya boshqarmasi
Termiz shahridagi “Surxon haqiqat maskani” advokatlar hay'ati advokatlari **Turanov Xalnazar Imamnazarovich** hamda **Kiyamov Tuxtamishlarning** advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilish muddati hamda advokatlik maqomi tugatilganligi **MA'LUM QILADI.**

Od Atiy bugun, innovatsion kelajak

Boshqarmaning asosiy vazifalari – viloyatda ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga ko'maklashish, ilmiy dasturlar loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish, texnologiyalar transferini tashkil etish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning hududiy uzviy bog'liqligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish hamda innovatsion infratuzilma subyektlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. Asosiy vazifalari o'ta ilmiylashtirish ketgan boshqarmaning qisqa muddat davomida tanlangan hudud — innovatsion tuman — Oltinsoy tumanida qilgan ishlariga shu maqola so'ngigacha e'tiboringizni qaratmoqchimiz...

“ENASI — INKUBATOR”

Mavsumi hozir bo'lmagan ish to'xtab qolgan deb o'ylamang. Ishning avji sekinlashgan bo'lmagligi mumkin. Oltinsoy tumanida faoliyat yuritayotgan “Dilmurodbek To'raxonov” oilaviy korxonasi dagilarning ishi pichoqqa ilinadigan. O'rdakchilik respublikamizning atigi ikki viloyatidagina rivojlanayotgan esa, “bosh-adog'ini hisoblasa o'n yilga yetadigan” vaqtdirki, inkubatoriya va yoki jo'jachilik bilan shug'ullanib kelayotgan oila bekasining o'rdaklar injiqligini ko'tarishga matonati yetarli. Agidel 34 naslli o'rdaklarni xalq “broylar o'rdak” deb ham atarkan. Sababiki tezda vazn yig'adigan o'rdakning go'shti Ovro'poda ancha talabgir. Bizda esa innovatsion loyiha, xolos. Hali ish berishi uchun go'shtiga ishtiyoqi borlarni jalb etish kerak, “o'rdakning go'shti ham go'sht bo'ladimi” deydigilar uchun tansiq taomlarga asos bo'ladigan o'rdak go'shtining ta'rifi va zingning suvi kelib maqtasang ham, fikri o'zgarmasa... ish unadimi?! Kamiga uning pati yaxshigina xomashyo, antiallergen xususiyati bilan tilga tushgan. Qolaversa, issiqqina tutadigan dunyo brendlaridagi qishki kiyimlarning tarkibida aynan Agidelnig patlari bor. Viloyat innovatsiya boshqarmasi vakilining bergan ma'lumotiga ko'ra, bu nasldagi o'rdaklarning pati ummonortida qimmat va talabgir xomashyodir. Lekin, xomashyo ham, go'sht ham, hattoki qimmatbaho tuxumi ham viloyatda ommalashmagan, eksport uchun yo'llari ochilmagan startap katta tavakkalchilikdan o'zga narsa emas. Yoki talab mavjud bo'lmagan mahsulot deya avering. Loyiha targ'ibotchisi — oilaviy korxonasi asoschilaridan Pardaxol To'raxonovning aytari izoh bo'lar:

— Viloyatdagi beshta tuman aholisiga tuxumi va o'rdak bolalarini yetkazib beramiz. O'zimiz ham shu yil boqib bildikki, o'rdak boqishning o'zi bo'lmaydi. Yemi va boqish uchun zarur maydon yetishmasligi sabab viloyat hokimidan amaliy ko'mak so'rashga majbur bo'ldim. Hokimning o'zi shaxsan oilaviy korxonamizga tashrif buyurib tegishli tartibda yordam berish haqida ko'rsatma berdi.

984 million so'mlik “Biznes inkubator” loyihasida bugun 12 nafar fuqaro ish bilan band. Shu bilan birga, Oltinsoy tumanida oilaviy kooperatsiya tashkil etish maqsadida xorijdan 5 mingdan ortiq naslli o'rdak tuxumlari keltirilib, inkubatorida ko'paytirilgan. O'rdak polaponlari 60 kun bo'lgandan so'ng tumandagi kam ta'minlangan aholining 100 nafar a'zosiga tarqatilib ham rejalashtirilgan. Suvga sho'ng'ishni xushlaydigan, o'yinqaroq, yemish tanlamas, bir qo'y bilan ovqatlanishda bellashadigan o'rdaklarni sharoiti bo'lmagan aholi boqishi noo'ng'ay,

deylik, bir oyda 60 mingga yetadi. Shundan 50 mingta o'rdakni inkubatorida ochira olsak, har birini 4-5 ming so'mdan aholiga tarqatsak ham, bemalol xarajat qoplanadi. Makka, soya singari donlarga vitaminlar aralashtirib, minizavodimizda ishlab chiqaryapmiz.

Ha aytganday, minizavod ham Innovatsion rivojlanish vazirligining oilaviy korxonani qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag'lari hisobidan. Pardaxol opaning ta'biri bilan aytganda:



“Inkubator o'rdaklarning enasi. Bahorda yana inkubatoriyaning ishlatamiz. Bu oppoq o'rdaklar nafaqat chiroyli, balki 50-60 kunda yaxshigina semiradi. Hali tuxumga kirmagan o'rdaklarni 80 ming so'mdan so'rab kelishayotgani shundan”.

Ishning unumiga uchganlar uchun bozor topilmas, talab bo'lmas ekan, taklif o'zini oqlamasligi tabiiy.

“ZONADA YOSHLAR”

Tumanda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida “Yoshlar innovatsion ishlab chiqarish zonasi” tashkil etilmoqda. “Ipoq” mahallasi hududidagi 1,2 gektar yer maydoni va mavjud bino-inshootlar “Yashnobod” innovatsion texnoparki balansiga o'tkazildi. “Yoshlar innovatsion ishlab chiqarish zonasi”ni qurish bo'yicha 4,2 milliard so'mga teng bo'lgan dastlabki loyiha-smetasi ishlab chiqildi va qurilish ishlari boshlandi. Hozirda ushbu hududdagi bo'sh bino va yaroqsiz deb topilgan mavjud bino-inshootlarni buzish ishlari yakunlanib, o'rniga zarur bino-inshootlar qurish ishlari olib borilmoqda.

“Shuytib”, deganlaridek, “innovatsion” atamasi majburan tirkalgandek taassurot uyg'ota boshlagan lahzada mutasaddilar “OLTINSOY BAZALT QUVUR” MCHJ tomonidan “Bazalt minerali asosida yuqori

haroratga chidamli va mexanik mustahkam kompaundlarni ishlab chiqarish” loyihasi ishga tushirilganiga e'tiborimizni qaratishdi. MCHJ ishlab chiqara boshlagan quvurlar rostdan xaridorgir. Qurilish va bunyodkorlik pallasida qo'l keladigan quvurlarni ishlab chiqarishda innovatsion uslub, yondashuv sezilmaydi. Shunchaki tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va ish o'rnini hosil qilish uchun yo'naltirilgan loyiha, xolos.

Tushunganim viloyatda tanlangan tuman boshqarma xodimlari uchun anchagina “chap”. Qolaversa, loyihalar innovatsion bo'lishi uchun sharoit va aholi malakasi haminqadar. Borini do'ndiradigan, yo'g'ini yo'ndiradigan shovvozlara “yo'qdan ko'ra bor” deb mavjud tashabbuslarni qo'llashga tirishgan. Xursand qiladigani, aholi ishli... Oltinsoyliklarga iga kerak, innovatsiyam yoki eski uslub — farqsiz... Maqsad ertaning egalari biznes bilan band bo'lsa, ishlab asnosida ish o'rni yaratasa... Birovning qo'lga-yu chet elda sargardonlikda yurganlar yuborayotgan pulga ko'z tikmasin

innovatsion hudud degan maqom motivatsiyaga aylanmabdi deysan kishi...

“KELIB-KELIB, CHUVALCHANG BOQISHSA-YA...”

Biogumus go'ngdan tayyorlangan sifatli organik o'g'it bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlarining barchasida qo'llash mumkin. Zaminimizda chuvalchangning 97 turini uchratish mumkin. Faqat bir necha turigina boqish uchun yaroqli. Chuvalchanglar ko'p urug' hosil qiladi, 20 ta urug'dan 4-5 tasi tirik qoladi. Qizil Kaliforniya chuvalchangi oddiy “yovvoyi” chuvalchangga nisbatan juda faol va serpushtir. Agar uning ozuqasi yetarli bo'lsa, uyini tark etib ketmaydi.

Qulay sharoitda bir dona Kaliforniya chuvalchangi bir yarim ming chuvalchangni dunyoga keltirishi mumkin. Bu tur chuvalchang har kuni organik moddalardan o'z vazniga teng ovqat tanovul qiladi. Bir tonna organik chiqindilardan 600 kilogramm biogumus va 100 kilogramm oqsilga boy biomassa ishlab chiqariladi.

Go'ng, begona o'tlar, barglar, daraxt novdalari, somon, oshxonada chiqindilari, o'radagi yuvindilar, kushxonada, hayvonlar chiqindilari, qog'oz kardon va boshqalar chuvalchang ovqatidir. Shunga qararasdan go'ngni to'plab, 4-5 kun suv sepib turish zarur. Natijada organika qizib, parchalanish jarayoni yuz beradi. Agar biomassa to'plamiga bo'g' kukuni, so'ndirilgan ohak yoki dolomit unidan changlatilsa maqsadga muvofiq. Chunki chuvalchanglar achchiq muhitni yoqtirmaydi. Qurti binolar ichida ham, ochiq havoda ham boqsa bo'ladi.

Kelib-kelib chuvalchang boqishadimi deganlar tilini tish orasida qoldiradigan bo'ldi. Aholi nomiga ochilgan plastik kartalarga oyma-oy pul tushadi. Evaziga chuvalchang yetishtirish kerak.

— Qo'y go'ngidan foydalanib ko'rdik, juda serunum ekan, — deydi Aliyor Aliyorov. — Chuvalchanglari yirikroq, tezroq yetiladi. Biz birinchi marta chuvalchang yetishtirayotgan bo'lsak-da, ularni doimiy nazoratda tutamiz. Avvallari qishloqdagilar chet elga ishga ketishardi. Hozir ham shunday. Imkon topdi degani chet elda. Lekin o'z uyimda menga shu ishni ishonishganidan keyin odam jiddiyoq kirishar ekan.

Innovatsiya deganini o'zlari yaratayotgan ahali o'z oldiga yangi rejalar qo'yganki, qush va quyon go'nglaridan foydalanib, chuvalchang yetishtirishni ham sinab ko'rishmoqchi. Yuqorida aholining innovatsiya haqidagi tushunchasi haminqadar deganimga pushaymon qiladigan javobni olgach, tumandagi ikkita mahallada javlon urib chuvalchanglarga g'amxo'rlik qilayotganlar e'tiborimizni tortdi.

— “Chep” mahallasida 78 ta oila chuvalchang yetishtirmoqda, — deydi A. Aliyorov. — Yana 25-30 ta oilani ishli qilish rejamiz bor. Zardob, tibbiy suyuqlik olish maqsadida yetishtirilayotgan chuvalchang ortidan tayyor biogumus ham olinadi. “Bir o'q bilan ikki quyon” deganlari shu-da!

Dunyo kosmetologlari tabiiylik va go'zallikni saqlab qolishning yagona yo'lini tabiatda deb bilayotgan lahzada chuvalchangning tabiiy jihatlari teri parvarishi, ajnrlardan himoyalash va asosiy yuzni tiniqlashtirishini hisobga olsak, oltinsoylik innovatorlar mo'maygina daromad uchun poydevor hozirlashmoqda.

Natijasi kelajak bilan umumlashib ketgan loyihalardan ko'zlangan maqsad anglashilsa, buguni emas ertasi uchun harakat qilayotgan el ko'zingga olovdek ko'rinish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son qaroriga asosan Innovatsion rivojlanish vazirligining viloyat boshqarmasi faoliyati tashkil etildi. Mavridi kelganda to'xtaladigan masala bor. Boshqarma nima uchun kerak?! Unga ehtiyoj qanday?

qolgan loyihalar tijoratlashtirish deya kvalifikatsiyalangan.

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasi seleksiyasiga mansub sabzavot ekinlari yangi navlarining yuqori sifatli, yuqori navdor urug'larini ishlab chiqish, ichki bozorga va eksportga chiqarish namunasi yaratilib, tijoratlashtirishga tayyorlandi.

2021-yilning o'tgan davri mobaynida “Yashnobod” innovatsion texnoparki rententligiga 5 ta, xususan “OLTINSOY AVTO BO'YOQLARI”, “HYDROGEL”, “Xisora mayin jun”, “OLTIN GUGURT BECER” MCHJlari qabul qilindi.

Qirchillama yoshli tumanning 40 yillik ish faoliyatini tubdan o'zgartirish uchun yillar kerak. Ammo, ishlar siljiyotir. Qarsning ikki qo'lni band etmayotgani peshonani tirishtiradigan holat. Aholidan tashabbus kutsang, kredit olsa-uy maqsadli sarflashni to'y qilish-uy qurish deb bilsa... Hamma loyihani boshqarmada o'tirganlar o'ylab topib, yo'naltirsa-yu el o'ziniki deb bilib, labbay demasa... ikki qo'lni birlashtiruvchi hokimiyat vakillarining tashvishi alohida innovatsiyaga muhtoj shekilli.



“CHO'NTAK KO'TARMAYDI, QO'RQOQ YO'TALMAYDI”

Oltinsoy tumanida ne-ne maqsadlar bilan to'yxona emas, restoran-u kafe, spa-uy ana emas o'quv markaz, kamida innovatsion o'quv markaz ochilsa-yu markaz huvillab yotsa... Endi lof bo'lmasa, gapning asali bo'lmaydi deydigilar xilidan ekanligim bois, butun boshli markazda 50 nafarga yetar yo yetmas tinglovchi borligini eshitib, huvillashning titroq tovushini eshitganday bo'ldim-da.

— Qishloq sharoiti odamlar 450-500 mingga IT kursga qatnashmaydi, qatnashsa ham bu sohaga tumanda ish yo'q. Ikkita kompyuter bilan jihozlangan xonalarimiz bor, ammo... — deydi innovatsion o'quv markazi boshqaruvchisi Albina Nurillayeva. — Asosan repetitorlik kurslariga qatnovchilar kelishyapti. Qolaversa, yoshlar ittifoqi, yoshlar agentligi, bandlikka ko'maklashish hududiy bo'linmasi tavsiyasi bilan ish o'rganuvchilar kelishadi.

Innovatsion o'quv markazi taklif etayotgan kurslar aholini ishli qilishi mumkin. Lekin qo'rquv har qanday mag'lubiyatlar uchun asos bo'lishini hisobga olsak, hadikni arituvchi, yuragida o'ti lovullab turganlarni qo'llovchilar topilishi kerak. Yoki pul sarflasa-yu olgan sertifikat

OLTINSOY

INNOVATSION TUMANIGA XUSH KELIBSIZ!

Kun davomida ish bilan mashg'ul bo'lamiz. Uyoqdan bu yoqqa borib kelish, soatlab kompyuter qarshisida o'tirish aytishga oson, ammo 8-10 soat vaqtini oyoqda o'tkazgan inson uchun bu charchoqli kun degani.



ORTOPEDIK MATRASLAR —

SALOMATLIKKA POSBON

Kechqurun maza qilib tiniqib uxlab dam olaman degan taskin bilan o'zimizni ovutamiz. Jismonan toliqishimiz haqiqat, umurtqa pog'onamizga esa yanada ko'proq og'irlik tushadi. Kechasi yotganda ham dam olyapman deb o'ylaymiz-u umurtqamiz esa baribir gavdani ushlab turish bilan band bo'lishini bilmaymiz. Bu erta tongdagi og'irlik hissi, charchoqlarning xuddi chiqmagandek tuyulishi bilan namoyon bo'ladi. Xo'sh, umurtqaga qanday dam berish mumkin?

Ortopedik matraslarni belida, umurtqa pog'onasida muammosi bor bemorlariga shifokor tavsiya qiladi. Shuni ham aytish kerakki, ortopedik matraslar faqat ana shunday bemorlar uchun degan faraz butunlay noto'g'ri. U faqat muolaja sifatida qo'llanmaydi, ortopedik matraslar sog'lik uchun, sog'lom turmush tarzi uchun ham zarurat. U tanani qulay holatda bo'lishini ta'minlab, umurtqaga yengillik tug'diradi.

— “Ortopediya” atamasi mushak-skelet tizimining turli xil deformatsiyalarini tuzatish yoki ularning kamchiliklarini qoplash qobiliyatini anglatadi, — deydi travmatolog ortoped Akmal To'qsonov. — Garchi bu konsepsiya matraslarga nisbatan qo'llanilsa ham, bu noto'g'ri emas, ular umurtqa pog'onasi kasalliklarini davolay olmaydi, ammo ular og'irliqni kamaytiradi. Ortopedik matraslar uyqu sifatini oshiradi, bel va bo'g'imlar muammosining oldini oladi. Umurtqaning tabiiy fiziologik holatda bo'lishini ta'minlab, qon-tomir tizimi faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi holatlardan ham saqlaydi. Shuning uchun ham qabulimga kelgan har bir bemorni tekshirib ko'rayotib, umurtqa pog'onasi, bo'g'im-u belidan shikoyati borlarga ham, umuman barchaga doimo ortopedik matrasda dam olishlarini tavsiya qilaman. Ortopedik matraslar qattiq bo'ladi. Lekin ularning qattiqlik darajasi turlicha. Bunday matraslarning afzalligi egiluvchanligidadir. Yagona maqsad tanani salomatlik uchun zarur

bo'lgan tabiiy holatga keltirish. Ayniqsa, bolalar qattiqroq matrasda yotgani ma'qul. Shakllanayotgan umurtqa uchun bunday matraslar bola bukchayishiga odatlanishining oldini oladi. Keksa yoshdagilarga yumshoq, tana vazniga qarab yumshoq va qattiqlik darajasi belgilanib, matras turlari tavsiya etiladi. Qolaversa, sifatli ortopedik matras bir necha qattiq zonaga ega bo'ladi. Matrasdagi son sohasi yumshoqroq, bo'yin, bel sohalari esa elastik bo'lishi lozim. Shunda u tana shakliga moslashadi. Umurtqaga dam berib, davolaydi. Mushaklarni bo'shashtiradi. Bosh og'rig'i va uyqusizlikdan xalos qiladi.

Sifatsiz matrasda yaxshi uxlay olmaslik, uyquga to'ymaslik, bosh og'rig'i va allergiyani chaqirib olish ham hech gap emas. Sifatsiz xomashyodan tayyorlangan matraslarda havo aylanishi yaxshi bo'lmaganligi sabab hid paydo bo'ladi va bakteriya ko'payadi. O'ta qattiq matras esa umurtqaga ziyon yetkazib qo'yishi mumkin. Foydali bo'lgan ortopedik

matraslarning prujinali, alohida mustaqil prujinasi bor hamda prujinasiz turli qo'shimchalardan iborat bo'lgan turlari bor. Ularning narxi ham oddiy matraslardan farq qiladi. Sifati, chidamligi bilan ham uzoq muddat foydalanish mumkin. Yaroqsiz holga kelib qolgan matraslarni yangisiga almashtirish uchun (ketgan xomashyo, xarajatlar bilan qo'shib hisoblaganda) yaxshigina chiqim qilishigizga to'g'ri kelardi. Hozirgi kunda yurtimizda, ayniqsa, viloyatda ortopedik xususiyatiga ega matraslarning ishlab chiqarilayotgani mahsulot narxida sezilarli quylaylik yaratdi. Yosh tadbirkor Bahrom Rashidov o'z faoliyatini boshlaganiga besh yil bo'lyapti. Bu muddat ichida mebel sexi ochib, kerakli xomashyolarni olib kelib sotardi. Vaqt o'tib ishini rivojlantirishni o'yladi. “Yoshlar kelajagimiz” jamg'armasidan 700 million so'mlik imtiyozli kredit olib, xizmat turlarini kengaytirdi. Germaniyadan dsp kesadigan, chetiga lentalarini yelimplab beradigan uskunalar olib keldi. Ayniqsa, ortopedik matraslar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan mahalliy mebelsozlar, mebel do'konlari-yu xalq uchun ayni

oldin matras xarid qilganlarning tanishlari aynan manzilimizni qidirib kelganini, faqat va faqat bizdan ortopedik matras olishlarini aytganida o'z ishimdan g'ururlanib, qilgan mehnatimdan yuzim yorug' bo'lgan. Ma'lumotim oliy bo'lsa-da, mana shu sexdan boshqa joyda ishlashni tasavvur qila olmayman. Avvaliga shunchaki mebel sexida ishlamoqchi bo'lgandim. O'shanda ishdan Qarshi shahriga o'qishga jo'natishdi. Ortopedik matraslar tayyorlashni o'rganib qaytishim kerak edi. Qo'limdan keladi deb boshlagan ishimni ustoz ustalar ko'rib chiqardi-da, xatolari sabab matrasni ochib tashlashdi. Bu bir necha bor takrorlanaverganidan so'ng, cho'chib qoldim. Bir oy ham o'tib boryapti. Oxiri, ustoz topshirig'i bilan hech kimning yordamisiz matras tayyorladim. Bu safar ishim yaxshi chiqqandi. Shu-shu bir necha yildan beri ustaxonada ortopedik matras to'qiyman. Shu paytgacha 5 040 ta ortopedik matras tayyorlagan ekanman. Bu aytishga oson, uning zahmati va mehnati ortidan keladigan zavqni esa so'z bilan tushuntirish qiyin. Dilshod Tursunov ishini sevadi.

TADBIRKORLIK

— Xaridorlar talabiga qarab matraslarni tayyorlab beramiz, — deydi ish ustida Jamshid Qurbonniyozov. — Belida grijasi bor bo'lgan xaridor matras qattiq bo'lsin deydi. Buning uchun prujinalarni zich terib chiqamiz. Odatda 210x170 santimetr hajmdagi matras uchun eniga 24, bo'yiga 33 qator prujina teriladi. Matrasning ba'zi sohalari yumshoq, ba'zi joyi zichroq, ba'zi joylari esa elastik bo'lishi uchun ham prujinalarni shu jihatlarni e'tiborga olgan holda joylashtiramiz. To'g'ri, bu haqida xaridor bilmasligi mumkin, ammo o'z ishimiz uchun zarur bo'lgan jihatlarni unutish, matraslarimizning sifatiga, foydaliligiga putur yetkazadi.

Xonadonida bir necha yillar davomida foydalanib kelgan, uxlashda noqulaylik tug'dirib, o'rtasi cho'kib qolgan matrasini chiqitga chiqarishga ko'zi qiymaydiganlar esa shoshmagani ma'qul. Chunki matras ustalari foydalanishga yaroqsiz matraslarni-da, qayta terib, ortopedik matrasga

muddao bo'ldi. Sexning Angor tumanida ham filiali ochilib, ayni paytda 20 yaqin ishsizning bandligi ta'minlangan.

Ortopedik matraslarning foydalanishga tayyor holatga kelguniga qadar ham o'z qiyinchiligi, mashaqqatlari bor. Buni matras tayyorlovchi ustadan bo'lak hech kim tasavvur qila olmasa kerak.

— Matras olishni istab kelganga birinchi navbatda eng sifatli matrasni tavsiya qilaman, — deydi usta Dilshod Tursunov. — Narxi esa ularni biroz cho'chitadi. Shunday bo'lsa ham uning afzalliklarini, sifati va uzoq muddat xizmat qilishini aytishdan erinmayman. Ishonchim komilki, bu tavsiya va tanlovimdan xaridorlar afsuslanishmaydi. To'g'ri, ortopedik matraslar tanish-bilishlar tavsiya qilib olinadigan mahsulot emas. Uni mutaxassis, shifokor tavsiyasiga ko'ra olgan ma'qul. Ammo, bir necha yillar

Kelajakda o'z ishini yo'lga qo'yishi uchun ham bu mehnatlari trampolin vazifasini o'tayotganini aytadi. O'z ishini boshlash uchun har bir ishning kichik sirlarigacha o'zlashtirib olishni istaydi. Malaka va bilim kelajakda yosh ustaga o'ziga ishonch beruvchi kuch bo'lib xizmat qilishi aniq.

Ayni paytda Dilshod Tursunov shogirdi Jamshid Qurbonniyozov bilan birga ishlaydi. Jamshidning ham prujinalarni taxlab berish, zichlashtirib, mustahkamlashga, ustiga mato qoplab, paralon gupka bilan qo'shib tikishga qo'li ancha kelishib qolgan. Matras ustalarining qo'li gul. Ular bitta ikki kishilik matrasni tayyor holatga keltirguncha 3 soatga yaqin vaqt sarflaydi. Ustoz-shogird raqobatlashgandek, kuniga bitta bir kishilik, bitta ikki kishilik ortopedik matrasni charchamasdan terib, tayyor qilishadi.

aylantirib, yangilab berishga qodir. Qarabsizki, keraksiz buyumlarigiz bittaga kamayib, naqingizni ham tejsaysiz.

— Matras tayyorlashni o'rganib kelganimdan so'ng, — deydi Dilshod Tursunov, — eng birinchi ishim, o'zim foydalanib kelgan matrasni yangilashdan boshlangan. Aslo yangisini tayyorlab olmadim. Aksincha, eski matrasimni ochib tashlab, qayta terdim, mustahkamladim. O'rtacha variantdagi matras ekan, tayyor bo'lgach, qulayligi yanada oshdi.

Matras tanlash ham muhim jarayon. Albatta, tanlovga vaqt ajrating. To'shak nafaqat qimmat xarid, balki sog'lig'ingiz uchun juda muhimdir. Charchaganingizda xarid qilishga aslo bormang. Aks holda har qanday matras sizga qulay ko'rinishi mumkin.

Sayyora ALLAYEVA

Mahallada nima gap?

Ular mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, oilalar turmush farovonligini oshirish yo'lida bor bilim va mahoratlarini safarbar etadilar. Aholi sharoitlarini o'rganib, mahalladagi asosiy drayver sohalarni aniqlamoqda. Shunga ko'ra, viloyatdagi 220 ta mahallada chorvachilik, parrandachilik va asalarichilik, 166 ta mahallada issiqxonaxo'jaligi, 108 ta mahallada dehqonchilik, 28 ta mahallada bog'dorchilik, ellikdan ortiq mahallada hunarmandchilik, yana shuncha mahallada baliqchilik hamda 73 ta mahallada xizmat ko'rsatish sohalari rivojlantiriladi.

Angor tumanidagi “Kayran” mahallasi vohadagi 47 ta sharoiti og'ir va har jihatdan rivojlantirishni talab etadigan mahalla fuqarolar yig'inlaridan. Bu yerda istiqomat qilayotgan 4 713 nafar aholining 2 135 nafari ishga yaroqli. Mahallaga birlashtirilgan hokim yordamchisi Sherzod Yo'liyev xatlovdan o'tkazish maqsadida xonadonlarga kirib, oilalarning turmush sharoitini o'rganib, bo'sh turgan imorati yoki molxonalarida jo'ja boqishni targ'ib qilmoqda. U Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridan 12 ming bosh jo'ja keltirib, o'ttizta oilaning har biriga o'rtacha 300 boshdan 700 boshgacha tarqatdi.

Bahodir Saparov xonadonida oilasi, ikki nafar oilali o'g'li va 86 yoshli onasi jo'par momo Xo'jamberdiyeva istiqomat qiladi.

— Har yili tomorqamizda sarimsoq piyoz, anor yetishtiramiz, qoramol boqamiz, — deydi kelini Farangiz Amirova. — Mahallamizda ish boshlagan hokim yordamchisi Sherzod Yo'liyev xonadonimizga kelib, sharoitimiz bilan tanishgach, molxonamizda parranda boqishni taklif qildi. 700 bosh jo'jani

45 kun boqsak, 3 million 500 ming so'm daromadiga ega bo'lishimizni aytdi. Hozir oilaviy jo'ja boqyapmiz. Yetarlicha omuxta yem, molxonani qizitish uchun pech va suyultirilgan gaz bilan ta'minlashgan. Veterinar vrach Shohruh Murodov har ikki kunda keladi, parrandalar holidan xabarlashadi, maslahat beradi. Uyda o'tirib daromad topayotganimizdan mamnunmiz.

Mahalla fuqarosi Tilovmurod Xudoynazarov ham turmush o'rtog'i Sofiya Xurramova va kelini

vazni 3 kilogramli do'mboq jo'jadan 60 ming so'm daromad keladi. Demak, 45 kunda har bir jo'jadan sarflangan xarajatimizdan tashqari sof 28 ming so'm foyda qoladi. Jo'jalarni poytaxtdagi korxonalarida ishlab chiqarilgan omuxta yem bilan boqyapmiz. Yemni Termiz tumanidagi “Miks” korxonasidan keltirsak ham bo'ladi. Narxi ham ming so'm arzon. Ammo, “Miks” MCHJ sexlarida tayyorlangan omuxta yem bilan boqilganda jo'ja 45 kunda 1,8 kilogramm semiradi, Toshkentdan xarid qilinayotgan

tashkil etish maqsadida allaqachon mahalladagi 20 nafar ayolni ishli qilishga ulguribdi.

— Hokim yordamchisi bizga tikuv mashinalari, matolar, qisqasi, kiyim-kechakning ipidan ignasigacha muhayyo qilib berdi, — deydi chevar tikuvchi Maqsuda Hayitova. — Biz tikayotgan erkak va ayollar choponi, shuningdek, boshqa kiyim-kechaklar Angor buyum bozorida aholiga sotiladi. Tikkan har bir mahsulotimiz uchun o'rtacha 20 ming so'm

ushbu maqolani o'qigan gazetxonlarda, albatta, “Faoliyatini endi boshlagan, hali banklardan yordamchilarga kredit va subsidiya ajratilmagan bo'lsa, bir dunyo ishni qaysi mablag'i hisobiga qilayotgan ekan?” degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. Shuni e'tirof etmoq kerakki, “Kayran” mahallasi ahli omdamli odamlar ekan. Ularga hokim yordamchisi bo'lib tayinlangan Sherzod Yo'liyev chin ma'noda tadbirkor, mol-mulki, boyligi o'ziga yetarli. U Toshkent Moliya institutini

“QO'LI UZUN” YORDAMCHI

Joriy yilning yanvaridan viloyatimizdagi 721 ta mahallada hokim yordamchilari o'z vazifalarini bajarishga kirishdi.

Gavhar Tojiyevaning ishli bo'lganidan g'oyat xursand. Hozir xonadonda “Ros broyler-308” zotli 316 bosh jo'ja parvarishlanayapti. Jonivorlar qarovi namunalni tashkil qilinib, har biri 3 kilogramm tosh bosadigan darajaga yetkazilsa, oila 3 million so'm daromadga ega bo'ladi.

Tashabbuskor hokim yordamchisi sa'y-harakati bilan aholini parranda boqishga o'rgatish niyatida Jizzax va Toshkent viloyatlaridan veterinar hamda mutaxassis Shohruh Murodov, Shohjahon Xudoynazarovlar jalb etilgan. Ular xonadonlarida parranda boqayotgan shaxslarga jonivorlarni parvarishlashning ilmiy sirlarini o'rgatishmoqda.

— Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridagi parrandachilik korxonalaridan keltirilgan va aholiga tarqatilgan “Ros broyler-308” zotli jo'jalarning har biri vazni 30 gramm, narxi esa 7 ming 500 so'm. Jonivorlarni 45 kun boqib, vaznini 3 kilogramga yetkazish xarajatlari 32 ming so'mga to'g'ri kelyapti, — deydi Sherzod Yo'liyev. —

Bozorda har kilogramm parranda go'shtini o'rtacha 20 ming so'mdan sotganimizda,

omuxta yem bilan esa shu muddatda jo'jalar 3 kilogramm go'sht qiladi. Tadbirkorlik qilaman degan kishi har bir ishda foyda bilan ziyonni farqiga yetishi kerak. Aytish joizki, hokim yordamchisi yil oxirigacha mahalladagi yana 120 xonadonda doimiy parranda boqilishiga erishishni rejalashtirgan. Shu maqsadda mahallaning o'zida jo'ja ochirishni tashkillashtirish maqsadida zamonaviy 12 ta inkubator xarid qilindi. Bu inkubatorlarda 25 kunda 8 mingta jo'ja ochirish imkonini mavjud va har bir jo'janing narxi 1 500 so'mga to'g'ri keladi. Holbuki, aholiga tarqatilgan jo'janing har bittasi 7 ming 500 so'mdan xarid qilinayotgandir. Iqtisod qilingan mablag' inkubatorlarni ishlatadigan ishchilarga maosh va elektr energiyasi xarajatiga sarflanadi. Muhimi, mahallaning o'zida jo'ja ochirilsa, 120 xonadonda parranda boqish rejasini ro'yobga chiqardi hamda qo'shni mahallalardagi parranda boqishga qiziquvchi talabgorlarga sog'lom, narxi arzon jo'ja yetkazib beriladi.

T o'rt yo'nalish bo'yicha ishga kirishgan hokim yordamchisi kooperatsiya asosida erkaklar va ayollar to'nini tikishni

berishadi.

Hokim yordamchisi qisqa fursatda mahalla ahvolini obdan o'rganibdi va bir qator zalvorli ishlarni amalga oshirishga kirishgan. Hududda, mahalliy aholi ta'biri bilan aytganda Baykal ko'li degan suv to'planib turadigan katta chuqurlik bor. 85 gektardan iborat bu chuqurlik joyda aholi tomorqalari va fermer xo'jaliklari dalasidan sizot suvlar tushaverib, ko'li hosil bo'lgan. Qirg'yildirki, bu joy besohib. Hokim yordamchisi bu yerda 20 nafar kishini jalb qilib, zog'ora va afrika laqqa baliqlari taqsimlab, plyonka ostida tarvuz, qovun yetishtiramiz hamda uzog'i bilan may oyigacha bozorga chiqaramiz, — deydi Sh. Yo'liyev.

Hokim yordamchisi faoliyatiga doir

bitirgandan keyin besh yilcha moliya bo'limi va banklarda taftishchi bo'lib ishladi. So'ng ayrim tushunmovchilik va nohaqlik tufayli

ishsiz qoldi. Oliy ma'lumotli mutaxassis Angor buyum bozorida arava sudrashdan orlanmadi, ba'zida hammollik qildi. Ayoli Nargiza Maxatova tandir-tandir non pishirib, bozorga chiqardi. “Tomatoma ko'l bo'lur” deganlaridek, er-xotin tinimsiz harakat tufayli yig'gan sarmoyalariga avval Angor buyum bozorida bitta do'kon qurdilar, so'ng ikkita. Hozir do'konlari soni 30 taga yetgan. Bundan tashqari, “Yo'liyeva Yulduz” MCHJ aholiga transport xizmati ko'rsatish uyushmasi rahbari ham Sherzod. Shu mol-mulkidan bir oyda keladigan daromadi 50 million so'mga yetadi. Sherzod Yo'liyev oylab to'plagan daromadining bir qismini mahallani rivojlantirishga sarflamoqda. Chunki u or uchun ishlayapti, O'zbekiston degan kelajagi porloq vatanning bir oshyoni hisoblangan “Kayran” mahallasini taraqqiy ettirish, aholisini farovon yashashini ta'minlash, eng muhimi, Prezident bildirgan ishonchni oqlash uchun mehnat qilaypti.

Usmonali NORMATOV

Yo'q'-e...

Ikkalasini ham olaqolay, ham u ayolga yordam, ham bolalarim bilan birga ovqatdan keyin tanovul qilamiz, degan maqsadda shirinliklarni oldim. Aksiga olib yonimda mayda pul bo'lmagani uchun u ayolga ellik mingtalikni berib, qaytimini olishni kutsam, “yonimda yo'q edi, hozir tepadagi qo'shnilaringizda bo'lsa pulni maydalab qaytimini qaytaraman” dedi-da, uydan chiqib ketdi. Men ham qo'shnilarimdan biri bo'lsa kerak. Shu atrofda yashasa, pulimning qolganini olib keladi, deb ishonim, albatta. Biroq kun bo'yi kutdim. Ha deganda, kelavermagach, tepa qavatdagi qo'shnilar eshigini qoqdim. Ular hech qanday pishiriq sotuvchi qo'shnim yo'qligini aytishdi. Aksincha, ular menga “Bunday ayollarga nega ishonasiz, hozir firibgarlar, tovlamachilar ko'paygan, duch kelgan kishiga eshikni ochavermaslik kerak.

Begonalarga ishonib bo'ladimi”, deya dashnom ham berishdi. Ishonchim suiste'mol bo'lganidan, qo'ltig'imdagi tarvuzim yerga dumaladi. Men esa uyga qaytar ekanman, miyamda faqat bir fikr aylanardi: “Nahotki, odamlar yolg'ondan, kimningdir haqini yeyishdan yoki ishonchini suiiste'mol qilishdan qo'rqishmaydigan bo'lib ketgan bo'lsa?! Axir, ishonib unga uydagi bor pulimni bergandim. Kelaman deb va'da bergandi, meni aldama keragov. Kimgadir, nimagadir ishonib yashamasa, odam hissiz jonivorga aylanib qolmaydimi, axir?” Bo'lgan voqeani turmush o'rtog'im ishdan qaytganida aytсам, “Sen shuncha yil o'qib, ishlab, ko'cha ko'rgan ayolga o'xshamaysan, hozir birovga ishonib bo'ladimi, uning dardi sendan pul undirish bo'lgani yaqqol ko'rinib turibdi, mayli, siqilma kelgan balo shunga ursin”, deya tasalli berdi. Men-ku pulimning ketganiga achinganim yo'q. Ammo ishonchning oyoqosti bo'lgani, ikki



MA'NAVIYAT

Harakat dasturimizga aylansa...

Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan “Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi” jamiyatimiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida puxta o'ylangan va ilmiy asoslangan chuqur islohotlarni izchil amalga oshirishni taqozo etadi.

Bu borada xalqimizning boy o'tmishi, sayqal topgan ma'naviy dunyosiga qayta-qayta murojaat qilishimizga to'g'ri keladi. Mamlakatimizda 2022-yilga “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili” deb nom berilishi o'ziga xos ramziy ma'no kasb etadi. Bu ezgu niyatni bekami ko'st ro'yobga chiqarish Sud, huquq-tartibot organi mutasaddilarning zimmasiga

yuksak mas'uliyat yuklaydi. Ular tom ma'noda adolat qo'rg'oni bo'lishi kerak, shunga qarab odamlar ulardan namuna olishadi, buyuk bobokalonlarimiz o'g'itlari biz uchun haqiqiy dasturilamal bo'lishi kerak. Jumladan, buyuk mutafakkir, atoqli davlat arbobi Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida bayon etilgan teran fikrlari, o'ylaymanki, har bir huquqshunos, ayniqsa, sudya uchun bebaho saboqdirdir. Hazrat Navoiy yozadi: “Qozi (ya'ni sudya) musulmonlik binosining tayanchidir va musulmonlarning yaxshi va yomon ishlari yuzasidan hukm chiqaruvchidir. Qozining ko'ngli din ilmi bilan to'la, dunyoviy bilimlardan xotirasi xabardor bo'lishi kerak. Xamirida shaxsiy manfaatga moyil bo'lmasligi, sof ko'ngli ikki

yuzlamachilik illatidan xoli bo'lishi lozim. Qozining mahkamasi shariat ilmining xazinasi bo'lmog'i, u hukm vaqtida oshnoga ham, begonaga ham bir ko'zda qaramong' ilozim. Cholg'u asbobning tori sozlanmagan bo'lsa, ovozi buziladi. Modomiki, hukmi elning moli va joniga taalluqli ekan, qozining shiori to'g'rilik va adolat bo'lmog'i lozim. Qozining oyog'i to'g'rilik ko'prigidan chetga toyar ekan, joni jannat tubida bo'ladi” deb keltirgan. Qozilik ishini qanday xohlasam, shunday qilaman deyish hayosizlik va yolg'onchilikdir. Navoiyning bu saboqlari har bir sudyaning, huquq-tartibot xodimlarining qasamyodiga aylinishi kerak.

N.BOBOMURATOVA,
Termiz tumanlararo Ma'muriy sudi sudyasi

Eshik taqilladi. Tashqarida kimningdir ovozi eshitildi. “Qo'shni, bu menman, sizda gapim bor edi”. Eshikni ochar-ochmasimdan o'zini menga qo'shni qilib ko'rsatgan haligi ayol qo'lidagi likopchaga solingan ikki bo'lak pirojniysini maqtay ketdi. Narxini so'rasam, donasi atigi besh ming.



Ishoning, firibgarlar bor!

Bemor bo'lgan do'st va yaqinlarini ziyorat qilish musulmon kishining muhim fazilatlaridan bo'lmog'i lozim. Biror kishi kasal bo'lsa, u zaiflanadi va g'amxo'rlikka muhtoj bo'ladi. Ruhii va jismoniy holati avvalgidek bo'lmaydi. Uning har doimgidan ham ko'proq oilasi, qarindoshlari va do'stlariga muhtojligi ortadi.

bo'lak shirinlik bilan kimdir vijdonini sotishgacha borgani menga tinchlik bermasdi. Bu voqeaga yillar bo'lgan esada, men hanuz ishonaman, o'sha ayol kechirimini so'rab yuniki vaziyatini tushuntirib, pulimning

qaytimini olib kelishiga. Har gal eshik taqillasa, ishonchim umidga aylanadi-da, eshik ortida u ayolni topolmasdan qaytaman... Ijtimoiy turmushda insonlar o'zaro bir-birlari bilan muomala qilar ekan, ular orasida turli xil munosabatlar o'rnatiladi. Ayrimlar sof, halol yo'l bilan, o'zgalar haqidan qo'rqan holda bu munosabatni o'rnatasa, ayrimlar o'zgalarning soddaligi, ishonuvchanligini suiiste'mol qiladi. Bundaylarning ham

jamiyatda o'z nomi bor ekan: firibgarlar va tovlamachilar. Darhaqiqat, bugun jamiyatimizda firibgarlik, tovlamachilik bilan kun ko'ruvchilar, birovning moliga, puliga ko'z olaytiruvchilar ko'paymoqda. Firibgarlikni kasb qilganlarning tuzog'i ham firib asosiga quriladi aslida. Ular o'zini sizga do'st, xuddi tug'ishgandek ko'rsatadi, yolg'onlariga chuv tushib, shishiydam qilmaguncha girdikapalak bo'ladi. Maqsadiga yetgach esa quyoning rasmni solib, g'oyib bo'ladi yoki chet elga qochib ketadi.

Misol uchun, o'tgan yili bir qarindoshimiz yap-yangi “Lacetti”ni vodiy tomondan bir tanishi orqali muddatli to'lov asosida olib kelib, bir yillar davomida qariyb 6 ming AQSH dollarini to'ladi, qolganini kelasi yil to'laymiz, deb turgan joyida mashinaning egasi kelib, “biz hech qanday pulni ko'rganimiz yo'q”, degancha ulovni vodiyga hayday ketdi. O'rtada turib, pulni yetkazib bergan azamat esa hozir xorijda. Unga ishongan, yemay-ichmay misqollab pul yig'ib mashina olaman degan sho'rlik esa ancha pulga kuydi-qoldi. Tegishli

Muzaffarxon JONIYEV

qilib, ko'ngil so'rab, haqqiga duo qilib ketishlari ekan.

hol so'rab borgan kishi uning yonidan ketguncha yaxshilik ichida bo'lar ekan. Bundan bemorni ziyorat qilish uchun ketgan vaqt saodatli vaqt ekan kelib chiqadi. Anas roziyalohu anhudan rivoyat qilinadi: “Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam: “Kim yaxshilab tahorat qilib, savob umidida musulmon bemor birodarini ko'rgani borsa, do'zaxdan yetmish kuz masofasiga uzoqlashtiriladi”, dedilar. “Ey Abu Hamza, kuz nimadir?” deyildi. “Yil”, dedi”. (Abu Dovud rivoyat qilganlar). Bu hadisi sharifda bemor ko'rish uchun borishga qattiq targ'ib bor. Chunki do'zaxdan bir kishi yetmish yil yo'l yurib, kesib o'tadigan masofaga uzoqlashtirish har bir mo'min-musulmon uchun katta baxtdir. Islom dini odamlar o'rtasidagi munosabatlarni eng mayda detallarigacha tartibga solgan. Ulardan biri qo'shning haqqidir. Qo'shning bir-biriga nisbatan ko'p huquq-

MUSULMONNING MUSULMONDAGI HAQQI

QADRIYAT

U ularning yonida bo'lishlarini xohlaydi. Shuning uchun qarindoshi kasal bo'lib qolsa, musulmon kishi tezroq uning ziyoratiga borishi kerak. Musulmonga musibat yoki kasallik ikki sababga ko'ra keladi. Alloh taolo bandasini bergan dard bilan sinash uchun kasal bo'lishiga iza beradi. Bunday holatda mo'min o'ziga kelgan musibatga sabr qiladi va Allohdan yordam so'raydi. Shu tariqa u ham Robbiga qilgan shukrini ado etadi. Unga tushgan kasallik uning gunohlariga kafforat bo'ladi. Xastaligiga sabr qilgani uchun Alloh tomonidan mukofotlanadi. Darhaqiqat, Islom bemorni ziyorat qilishni musulmonning

boshqa bir musulmon birodaridagi haqqi deb bilgan va buni bajarish lozimligini ta'kidlaydi. Biror kishi bemor musulmon birodarini ziyorat qilmoqchi bo'lsa, unga qulay vaqtda tashrif buyurishi kerak. Bemorga dam olish kerak bo'lganda noqulaylik tug'dirmasligi kerak. Iloji bo'lsa, bemorning yonida o'tirib, unga Allohdan shifo so'rashi kerak. Tashrif qisqa bo'lishi va agar mavjud bo'lsa, bemorning ehtiyojlari qondirilishi kerak. Kasallik — bu ofat. Musibat vaqtida musulmonlar bir-biriga yaqinroq bo'lishlari lozim. Bemor bo'lgan musulmonning boshqa musulmonlar ustida haqqi bor. U ham bo'lsa, ular kelib, bemorni ziyorat

Ushbu hadisi sharifning hukmi bo'yicha, bemor bo'lgan musulmon haqida xabar eshitgan boshqa musulmonlar uni borib ko'rishlari bemorning oldidagi burchlari hisoblanadi. Shuning uchun ham qaysi bir din qaridoshimizning bemor bo'lganini eshitasak, shu ko'rgani borishga shoshilishimiz kerak bo'ladi. O'sha birodarimizning bizdagi haqqini ado etmog'imiz, uni yo'qlab, ko'ngil so'rab, haqqiga duo qilishimiz dardkor. Imom Termiziy Savbon roziyalohu anhudan rivoyat qilgan hadisi sharifda: “Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam: “Qachonki, bir musulmon o'zining musulmon birodarining kasalini ko'rgani borsa, jannat mevalari ichida bo'ladi”, dedilar”, deyilgan. Demak, bir bemordan

tashkilotlarga murojaat qilay desa, qo'lida hech bir asosli hujjat yo'q.

Ming afsuski, o'tgan yili firibgarlarga aldanganlar bir ular emas. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, birgina 2021-yilda 705 ta firibgarlik bilan bog'liq jinoyat sodir etilgan. Shuningdek, firibgarlik jinoyatlarining 584 tasi pul oldi-berdi masalasida, 69 tasi o'qishga va ishga kiritish va 52 tasi esa chet elga ishga jo'natish maqsadida sodir etilgan. Bu hali qonun ijrochilariga murojaat etilib, sudda ko'rib chiqilgan firibgarlik holatlari. Qo'lida hech bir hujjati ham, da'vo ochishga asosi ham bo'lmagan, lekin tovlamachilar o'ljasiga aylanganlar qanchadan qancha.

Eng yomoni, firibgarlikni o'ziga qurol qilib olganlar, tovlamachilik bilan ish bitiradiganlarga ishonadigan biz o'zimizda ham ayb bor. Ishimiz oson bitishini, arzonrog'ini, qulayrog'ini olishni, boshqalardan oldin birov narsaga erishishni, tanish-bilish orqali, qo'li uzunlar yordamiga tayangan holda ish bitirishni istaganimiz uchun ham firibgarlarga o'zimiz sharoit yaratib beramiz. Misol uchun, uy yoki mashina olish uchun ro'yxatga yozilib, navbatimiz kelishini kutish o'rniga o'rtaga kimnidir tiqishtirib, yoki “shapka”sini berib tezroq muddaomizga yetishni istaymiz. Alaloqibat, tuzoqqa tushib aldanganimizda, ko'zimiz ochiladi. Lekin unda bari hech bo'ladi.

To'g'ri, firibgar-u tovlamachilarning qiyofasini bir qarashda tanish oson emas. Chunki, hech kimning peshonasiga “firibgar” deb bitib o'g'ilmagan. Shuning uchun ham sizga kimdir yordam qo'lini cho'zsa, avvalo, o'z haq-huquqimizni bilgan holda u odamning ishonchli ekaniga, haqiqatan ham, tayin ishi, berayotgan va dalari qonun-qoidaga mos kelish-kelmashligini puxta tekshirib, qilinayotgan ishlar qonuniy tusga egaligiga ishonch hosil qilish, obdan sinab, keyin birov yumushni unga ishonib topshirsakkina

firibgarlar tuzog'iga

ilinmaymiz. Aks holda, ishonuvchanligimiz o'zimizga qarshi ishlayveradi. Bir so'z bilan aytganda, haq-huquqini bilmaslik, duch kelganga ishonib ketaverish, uning yo'rig'ida yo'rg'lash o'zimizga qimmatga tushadi. Albatta, har bir jinoyat sodir etilishida uning motivi, sababi bo'ladi. Jinoyatchi ham o'z-o'zidan jinoyatchi bo'lib qolmaydi yoki firibgar bo'lib dunyoga kelmaydi. Psixologlarning fikricha, kishilarda firibgarlikka moyillik oilaviy muhit sabab ham yoshlikdan paydo bo'lishi mumkin ekan. Bolaning qarori, tahliyl fikrlash qobiliyati yo'qqa chiqarilsa, unda firibgarlikka moyillik paydo bo'ladi. Bola biror narsaga duch kelganda bu nima, bu qonuniymi, menga kerakmi, degan tanqidiy savollarga javob berishi kerak. Bolada bu narsa yo'q qilinsa, filtr yo'qoladi. Bolaga biror kishi biror narsani taklif qilganda, bola o'z chegarasini bilib, taklif qilingan narsani inkor qila olishi kerak. Shu bois katta firibgarlarni kichikligidan qaytarish o'z qo'limizda ekanligini unutmaslik lozim.

Adolat MO'MINOVA

